



MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLAR TA'LIM VA TARBIYANING MUHIM VOSITASIDIR

Ibragim Tursunov, 
Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Aziza Tursunova, 
Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Annotatsiya: Mamlakatimizning kelajagi, erkinligi va farovonligi, uning XXI asrda jahon hamjamiyatida qay darajada o'rin egallashi, eng avvalo, yosh avlodning qanday inson bo'lib voyaga yetishi bilan bog'liqdir. Barkamol avlodni tarbiyalashning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, yoshlarimiz ongiga Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyatga egadir. Ushbu ilmiy maqolada mualliflar ta'lim maskanlarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishga qo'yiladigan talablar va ularni amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari haqida tahliliy fikrlar yuritgan.

Kalit so'zlar: mafkura, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-ma'naviy muhit, mafkuraviy immunitet, milliy g'oya.

1. Kirish

Xalqaro maydonda mafkuraviy, g'oyaviy va axborot xurujlari kuchayib borayotgan hozirgi murakkab sharoitda ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni va uning tarkibiy qismi bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni zamon talablari darajasida tashkil etish, talabalar va o'quvchi-yoshlarni turli ma'naviy, mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, hayotga ongli munosabatini shakllantirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Shu bilan bir qatorda, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini tarbiyalash, mafkuraviy immunitetni hosil qilish, mamlakatimiz mustaqilligi va tinch-osoyshta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan turli tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi ushbu sohadagi faoliyatimizni yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Mamlakatning har bir fuqarosi, xususan, o'sib kelayotgan yosh avlod o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi mushkuldir.

Shu ma'noda, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning quyidagi fikrlari hozirgi davrda har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi: "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda" (Mirziyoyev, 2018).

Prezidentimiz bu boradagi fikrini davom ettirib, "Yurtimizda

DOI:
<https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi8.103>

Iqtibos:
Tursunov, Ibragim; Tursunova, Aziza. 2025.
Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ta'lim va tarbiyaning muhim vositasidir.
Markaziy Osiyoda media va kommunikatsiyalar xalqaro ilmiy jurnal. 8: 79-88.

ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy vazifa bo'lib turibdi. Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish va kamolga yetishiga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir" (Mirziyoyev, 2017), – deb asosiy yo'nalishni belgilab beradi.

2. Tadqiqot usuli

Ushbu ilmiy maqolada ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishning quyidagi usullaridan foydalanildi: ilmiy adabiyotlar, maqolalarni tahlil qilish metodi, funktsional yondashish va olingan natijalarni umumlashtirish.

Nazariy va qisman empirik manba sifatida yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyevning "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz" (2018); "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga qilamiz" (2017); "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son qarori (2017), shuningdek, olimlarimiz – U. Qoraboyevning "O'zbek xalqi bayramlari" (2002); "Madaniy tadbirlar" (2003); "Этнокультура" (2005); "Talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini oshirishning pedagogik asoslari. (2000) kabi monografiya va o'quv qo'llanmalaridan, R.Mavlonova, B.Normuradova, R.Rahmonqulovlarning "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" (2007); G.Ibragimovanning "Kasb ta'limi tizimida milliy istiqloq g'oyasi asosida o'quvchi-talaba-yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish" (2013); Sh.O.Olimovning "Ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish jarayonida akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida axloqiy estetik idealni shakllantirish" (2022); M.A. Axmedovanning "O'smir yoshidagi o'quvchilarning estetik tarbiya aspektida milliy – badiiy madaniyatning o'rni" (2024), R.Sh.Rustamovanning "Talaba yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish omillari" (2016) va boshqa olimlarimizning ilmiy va uslubiy ishlaridan foydalanildi.

Tadqiqotda M.T. Jumaniyozovanning: "Совершенствовање креативной компетентности преподавателей социольно-гуманитарного направления в процессе непрерывного повешинея квалификации" (2023) doktorlik dissertatsiyasida fikr yuritilgan oliy o'quv yurtlarida ijtimoiy-gumanitar fanlari professor-o'qituvchilarining ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishning o'ziga xos jihatlari ham o'rganilgan..

3. Natija va mulohazalar

Bugungi kunda ma'naviy va ma'rifiy tarbiya davlatimizning siyosati darajasiga ko'tarilgan. Taraqqiyot taqdirini o'z haquhuqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, tevarak-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildira oladigan, zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi.

Yuksak ma'naviyatni shakllantirishning asosi milliy g'oya tarbiyasi bilan bog'liq bo'lganligi uchun ziyolilar, ilmfan va madaniyat namoyondalari, avvalo, ma'naviy-ma'rifiy soha xodimlari milliy g'oyani yoshlar ongi va qalbiga singdirish samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishlari zarur.

Milliy g'oyani shakllantirish uchun jamiyat hayotida quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan o'ziga xos taraqqiyot yo'lini keng targ'ib etish;
- yurt tinchligi, chegaralarimiz daxlsizligi, osoyishtaligini ta'minlash borasidagi ishlarni kuchaytirish;
- o'zligimizni anglash, ko'p ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanligimizni his etib yashashga, bu boylklarni asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o'sib kelayotgan avlodga yetkazish;
- respublikamizda yashayotgan barcha millat va xalqlarning tengligi, hamjihatligini, hamkorligini mustahkamlab borish;
- fuqarolar ma'naviy kamolotini yuksaltirishga xizmat qiluvchi qadriyat va an'analarni, jumladan, milliy qadriyat, urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish;
- diniy aqidaparastlik, diniy ekstremizm, millatchilik, ichki va tashqi terroristik xurujlarga yo'l qo'ymaslik;
- yangicha va mustaqil fikrlaydigan, e'tiqodli, iymon-irodasi baquvvat, siyosiy yetuk, vatanparvar, g'ururi baland fuqarolarni, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash.

Bu vazifalarni amalga oshirishda targ'ibot texnologiyalari ichida alohida o'rin tutgan samarali yo'nalishlardan biri – ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'lib, ular yoshlar tarbiyasida alohida o'rin egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qarori (2017) qabul qilingan bo'lib, unda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi haqida so'z boradi. Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda "ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining mazmun-

mundarijasini tubdan yaxshilash, ularning ko‘lami va miqyosini kengaytirish, tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan soha xodimlarining bilim va malakasini izchil oshirib borish, tuman (shahar) darajasidagi xodimlar mehnatiga haq to‘lashning barqaror tizimini yo‘lga qo‘yish, sohada faoliyat olib borayotgan muassasa va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish va ularning samarasini oshirish” zarurligi alohida ta’kidlandi.

Qarorda ushbu vazifalarga asoslanib, turli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish, loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish nazarda tutiladi. Shu bilan birga, milliy g‘oyani keng targ‘ib etish, yoshlarda sog‘lom dunyoqarashni, kitobxonlik ko‘nikmasini shakllantirish, turli axborotlardan foydalanish madaniyatini oshirish, buzg‘unchi g‘oyalar va axborot xurujlariga qarshi immunitetni kuchaytirish, xalqimizning milliy tarbiyaga oid an‘analarni asrab-avaylash masalalari asosiy yo‘nalishlar sifatida belgilab berilgan.

Ma’lumki, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar ta’lim va tarbiyaning muhim vositasi sifatida muntazam o‘tkazib kelinayotgan bo‘lsa-da, hamma joyda ham kutilganidek natija bermayapti. Buning asosiy sababi, ta’lim va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda ko‘p hollarda o‘zaro izchillik va aloqadorlikning mavjud emasligi, ta’lim muassasalari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishga oid metodik ishlanmalar, texnologiyalar bilan ta’minlanmaganligidadir. Shuning uchun ushbu muammoning umumnazariy jihatlari ko‘plab olimlarning ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarida alohida o‘rin egallaydi.

“Albatta, bugungi kunda yurtimizda yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘usini kamol toptirish, ularni sog‘lom turmush tarzi ruhida tarbiyalashga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda” (2018), – deb ta’kidlagan edi Mirziyoyev o‘z nutqida.

Prezidentimiz tomonidan aytilgan: “Yoshlarni sog‘lom turmush tarzi ruhida tarbiyalash” hozirgi kunda o‘zining dolzarbligi bilan alohida ajralib turadigan vazifadir. Ushbu ishlarni amalga oshirishda maktabgacha ta’lim muassasalari, Prezident maktablari, maktablar, litseylar, oliy o‘quv yurtlarining roli tobora o‘sib va yangilanib bormoqda.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni Milliy g‘oya ruhini singdirish mamlakatimizning o‘ziga xos taraqqiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi. Faylasuf va tarixchi olimlardan A. Jalolov, E. Yusupov, A. Erkayev, N. Jo‘rayev, M. Imomnazarov, T. Mahmudov, Q. Nazarov, X. Shayxova, A. Mavrulov va boshqalar o‘z tadqiqotlarida milliy mafkura, milliy g‘oya hamda shaxs ma’naviyatining mohiyati, uning tarkibiy qismlari, ijtimoiy

vazifalari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar kabi masalalarni ilmiy jihatdan har tomonlama tadqiq etishga harakat qilganlar (2013).

F. Ravshanov, Sh. To'rayev, M. Quronov, F. Esonboboyev, X. Ochilov, Sh. Odilxonova va boshqalarning tadqiqotlari esa taraqqiyotga ma'naviy tahdidlar, ma'naviy illatlar, ommaviy madaniyat tahdidi va ularga qarshi kurash yo'llarini ko'rsatishga bag'ishlangan (2015).

Shaxsni har tomonlama ma'naviy shakllantirish bo'yicha pedagogika fani doirasida ham qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Pedagog olimlar O. Musurmonova, U. Mahkamov, E. Seytxalilov, M. Inomova, S. Ochilov, O. Hasanboyev, R. Safarov, N. Ortiqov, Q. Qurbonboyev, Z. Qurbonniyozova, G. Ibragimova, J. Toshmatova, Sh. Olimov, F. Norboyeva, G. Maxmutovalarning ishlarida shaxsni ma'naviy shakllantirish muammosi tadqiq etilgan (2018).

O. Musurmonovanning tadqiqot ishi ma'naviy qadriyatlar vositasida o'quvchilar ma'naviy-madaniyatini shakllantirish masalasiga bag'ishlangan.

U. Maxkamov o'quvchilarda axloqiy madaniyat masalalarini o'rgangan bo'lsa, M. Inomova oilada milliy qadriyatlar asosida bolalarni ma'naviy tarbiyalash, S. Ochilov mustaqillik sharoitida yoshlarni yangi ijtimoiy hayotga tayyorlash, ular ongiga, mustaqillik, ma'naviyat tushunchalarini singdirish kabi muhim masalalarni tadqiq etgan.

A. Xoliqov hadislar vositasida o'quvchilarni ma'naviy shakllantirish, faolliklarini rivojlantirish (2010), Q. Qurbonboyev talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirish yo'llarining nazariy-amaliy asoslari, talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini o'stirishda respublikamizdagi yoshlar tashkilotlarining o'rni (2000) haqida o'z fikr va mulohazalarini bildirib o'tgan. R. Mavlonova, B. Normuradova, R. Rahmonqulovlarning tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirish (2007), G. Ibragimova (2013) milliy istiqlol g'oyasi asosida talaba yoshlar ma'naviyatini shakllantirish, Sh. Olimov (2022) "Ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish jarayonida akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida axloqiy estetik idealni shakllantirish, F. Norboyeva (2015) o'quvchilarda milliy ongni shakllantirish, G. Maxmutova (2017) oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarni ma'naviy shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari kabi masalalarni tadqiq etganlar.

Shaxsning har tomonlama ma'naviy rivojlanishi masalasida MDH olimlari K. Sh. Axiyarov, I. N. Sizemskaya, N. A. Savotina, A. A. Xarisovalar (2024) tomonidan ham bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Ularning ishlarida bo'lg'usi o'qituvchilarni milliy

va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishga yo'naltirish, bunda pedagogik bilim, ijtimoiy me'yor va qoidalar, umuman kishining jamiyatda harakat qilishi, o'zini namoyon etishga yo'naltiradigan qadriyatlarni o'zlashtirishi, o'qituvchining ma'naviy shakllanishi, uning o'zini shaxs sifatida anglashi, ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyatni amalga oshirish va uning natijasini baholay olishi ma'naviy barkamollik va yuqori madaniyatlilik ko'rsatgichi sifatida tadqiq etilgan.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning tarbiyaviy jihatlari to'g'risida ham mamlakatimiz olimlari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. U. Qoraboyevning qator ishlarida (2002, 2003, 2006) ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyatini yoritishga alohida o'rin ajratilgan. M.T. Jumaniyozovanning doktorlik dissertatsiyasida esa konstitutsiya kuni, navro'z, xalqaro xotin-qizlar kuni singari bayramlarning o'quvchilarda kasbiy madaniyatni shakllantirishdagi o'rni alohida ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan (2023).

“Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talaba shaxsini axloqiy shakllantirishning pedagogik asoslari” (Toshmatova, 2019) mavzusidagi ishda talaba shaxsini axloqiy tarbiyalash shakllarining ba'zi jihatlari yoritilgan.

“Talaba yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish omillari” mavzusidagi tadqiqotda esa talaba yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ba'zi turlari: mavzuli kechalar, ekskursiyalar, bayramlardan foydalanish, ularning o'ziga xos xususiyatlari singari masalalar tadqiq qilingan (Rustamova, 2016).

“Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va uni tashkil qilish metodikasi” kitobida ma'naviy-ma'rifiy ishlarda milliy g'oyani targ'ib qilish masalalari batafsil va atroflicha yoritilgan (Turayev, 2017).

Yuqorida ko'rsatilgan falsafiy, ilmiy-pedagogik adabiyotlar mazmunini o'rganish va tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish texnologiyasini, umuminsoniy, milliy qadriyatlar, an'analarga asoslangan tizimini yaratish orqali sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantirish samaradorligini oshirish muammosi maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan.

Bundan tashqari, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish yetarli darajada ilmiy-metodik jihatdan ta'minlanmaganligi bizning nazarimizda ushbu tizimda yechimini kutayotgan muammolar bilan bog'liq bir qancha masalalarni ko'tarib chiqish imkonini beradi.

Jumladan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va tadbirlarni yuksak darajada tashkil etishga qo'yiladigan talablar bilan bu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar bilim darajasi va malakasining pastligi bilan bog'liq bo'lgan nomutanosiblikning mavjudligi.

- shaxsning ma'naviy barkamolligiga nisbatan qo'yiladigan

yuksak talablar bilan bevosita ta'lim jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda ma'naviyatni shakllantirish mexanizmining aniq ishlab chiqilmaganligi o'rtasidagi nomutanosiblikning mavjudligi;

- ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish rejasi, soni va amalga oshirish sifati o'rtasidagi nomutanosibliklar mavjuddir.

Bugungi kunda globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlari bilan birga ommaviy madaniyat, ma'naviy, mafkuraviy tahdidlar va boshqa ko'pgina buzg'unchi g'oyalarning kirib kelayotganligi tufayli ularga ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'z milliy g'oyamizni qarshi qo'ya olishimiz zaruriyati ham ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Xulosa va tavsiyalar

Yuqorida bildirilgan fikrlarimiz va takliflarimizni umumlashtirib, quyidagilarni tavsiya etamiz:

– ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishda umuminsoniy va milliy qadriyatlar, an'analarga asoslangan ta'lim-tarbiya mexanizmlarini ishlab chiqish;

– ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish texnologiyasini yaratish;

– ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish omillarini aniqlash va tahlil qilish;

– ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini aniqlash metodlarini ko'rsatish;

– ta'lim muassasalarida to'plangan tajribalar va mavjud kamchiliklarni tahlil qilish, kuzatishlar natijalariga ko'ra ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish vazifalarini belgilab olish.

O'quvchi-yoshlarning dunyoqarashlarini rivojlantirish va ma'naviy dunyosini boyitishda xalq san'atining va madaniyatining o'rni katta bo'lib, bu ham bo'lsa, qaysidir ma'noda, estetik tarbiya bilan ham chambarchas bog'liqdir. Estetik tarbiya esa o'quvchilarning har tomonlama tarbiyasining ajralmas qismidir. U o'sib kelayotgan yosh avlodning olgan tajribasiga asoslanadi va bu tajribada go'zallik nuqtayi nazaridan yangicha tarovat beradi (Axmedova, 2024).

Mustaqillik davrida jamiyatimiz ijtimoiy jarayonida odamlar hayoti va ularning o'zaro munosabatlari qayta qurildi. Shu tariqa jamiyatning hayoti va taraqqiyotining bevosita shart-sharoitlari jadallik bilan o'zgardi. Istiqloq o'zgarishlarining eng muhim tarixiy voqealaridan biri sifatida barkamol avlodning yangi tipi o'z davrining yangi odami o'zini tobora yaqqolroq namoyon qila boshladi. Tarixiy tajriba fuqarolik jamiyati kishilarini madaniyatning barcha yutuqlaridan bahramand bo'lish uchun faqat mustaqil jamiyatimiz yo'l ochib bera olishini ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Axmedova, M.A. (2024). O'smir yoshidagi o'quvchilarning estetik tarbiya aspektida milliy – badiiy madaniyatning o'rni. "Ommaviy axborot vositalarida til va uslub masalasi: tahlil, qiyos" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14294309>

Ibragimova, G. (2013). Kasb ta'limi tizimida milliy istiqloq g'oyasi asosida o'quvchi-talaba-yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish. Ped. fan. dok. dissert. avtoref, Toshkent.

Ilm-fan va ta'lim – istiqloq poydevori. (2013). Respublika ilmiy-amaliy seminar materiallari. Toshkent.

Mavlonova, R.; Normuradova, B. va Rahmonqulov, R. (2007). Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Toshkent: "Fan" nashriyoti.

Maxmutova, G.I. (2017). Oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarni ma'naviy shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari. Ped. f. n. diss . avtoref. Toshkent.

Mirziyoyev, Sh.M. (2017). Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida, PQ-3160-son, lex.uz. URL: <https://lex.uz/docs/-4071203> Date of application: 12.03.2025.

Mirziyoyev, Sh.M. (2017). Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga qilamiz Toshkent: "O'zbekiston".

Mirziyoyev, Sh.M. (2018). Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom etirib yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent: "O'zbekiston".

Norboyeva, F.N. (2015). O'quvchilarda milliy ongini shakllantirish masalalari. "Ilm sarchashmalari" jurnali. № 2.

Olimov, Sh.O. (2022). "Ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish jarayonida akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida axloqiy estetik idealni shakllantirish. Toshkent: "Fan va texnologiya".

Qoraboyev, U. (2002). O'zbek xalqi bayramlari. Toshkent: "Fan".

Qoraboyev, U. Madaniy tadbirlar. Toshkent: Toshkent kartografiya fabrikasi.

Quronboyev Q.Q. (2000). Talabalarning ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini oshirishning pedagogik asoslari. Ped.fan.nom.dis...avtoreferati. Toshkent.

Rustamova, R.Sh. (2016). Talaba yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish omillari. Ped. f.f.f. dok. (Phd) avtoref. Toshkent.

San'at va badiiy ta'limning zamonaviy jamiyatni ma'naviy modernizatsiyalashdagi o'rni. (2018). Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Milliy rassomchilik va dizayn institute. Toshkent.

Toshmatova, J. (2019). Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talaba shaxsini axloqiy shakllantirishning pedagogik asoslari. Ped. f.f.f. dok. (Phd) avtoref. Toshkent.

Turayev, Sh.T. (2017). Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va uni tashkil qilish metodikasi. Toshkent: Paradigma.

Xoliqov A.A. (2010). Pedagogik mahorat. Toshkent: "Iqtisod moliya" nashriyoti.

Жуманиёзова, М.Т. (2023). Совершенствование креативной компетентности преподавателей социально-гуманитарного направления в процессе непрерывного повышения квалификации. Дисс. Канд. пед. наук. Узбекский научно-исследовательский институт педагогических наук имени Т.Н. Кары Ниязи. Ташкент.

Карабоев, У. (2006). Этнокультура. Ташкент: "Шарк".

Mualliflar haqida:

TURSUNOV Ibragim Nuraliyevich — Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. TursunovIbroxim@utas.uz

TURSUNOVA Aziza Mo'minovna — Toshkent Amaliy fanlar universiteti "Chet tillari-2" kaf.katta o'qituvchisi, TursunovaAziza@utas.uz

SPIRITUAL AND EDUCATIONAL ACTIVITIES AS AN
IMPORTANT MEANS OF EDUCATION AND UPBRINGING

Abstract: The future, freedom, and well-being of our country, as well as its place in the global community in the 21st century, depend primarily on how the young generation develops as individuals. Today, strengthening the spiritual foundations for nurturing a harmoniously developed generation, preserving national values, traditions, and customs, and deeply instilling feelings of love and devotion to the Motherland in the minds of young people is gaining particular relevance. In this scientific article, the authors analyzed the requirements for implementing spiritual and educational activities in educational institutions and the specifics of their realization.

Keywords: ideology, spiritual and educational work, national values, socio-spiritual environment, ideological immunity, national idea

About the authors:

TURSUNOV Ibragim Nuralievich — Associate Professor at Tashkent University of Applied Sciences, Candidate of Philological Sciences. TursunovIbroxim@utas.uz

TURSUNOVA Aziza Muminovna — Senior Lecturer in the Department of "Foreign Languages-2" at Tashkent University of Applied Sciences, TursunovaAziza@utas.uz

ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ МЕРОПРИЯТИЯ — ВАЖНОЕ СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Аннотация: Будущее, свобода и благополучие нашей страны, ее место в мировом сообществе в XXI веке зависят, прежде всего, от того, каким человеком вырастет представитель молодого поколения. Сегодня особую актуальность приобретает вопрос укрепления духовных основ воспитания гармонично развитого поколения, сохранения национальных ценностей, традиций и обычаев, глубокого внедрения в сознание молодежи чувств любви и преданности Родине. В данной научной статье авторы провели аналитический обзор требований к проведению духовно-просветительских мероприятий в образовательных учреждениях и особенностей их реализации.

Ключевые слова: идеология, духовно-просветительская работа, национальные ценности, социально-духовная среда, идеологический иммунитет, национальная идея

Об авторах:

ТУРСУНОВ Ибрагим Нуралиевич — доцент Ташкентского университета прикладных наук, кандидат филологических наук. TursunovIbroxim@utas.uz

ТУРСУНОВА Азиза Муминовна — старший преподаватель кафедры “Иностранные языки-2” Ташкентского университета прикладных наук, TursunovaAziza@utas.uz